

## FONEMA. FONETIKA VA UNING AKUSTIK JIHATI

*Andijon davlat chet tillari instituti dotsenti Kabulova U.S.  
Andijon davlat chet tillari instituti  
Roman-german va slavyan tillari fakulteti  
Filologiya va tillarni o‘qitish nemis tili  
1-bosqich talabasi Abdumutalibova Maftuna Abdumannob qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tovushga tasnif berilgan, fonema haqida qator mulohazalar olib borilgan, akustik qarashlar yorqin bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** fonema, akustik, nutq tovushlari, tovush balandligi, tovush kuchi, gets, un paychalari.

**Аннотация:** В Статье дана классификация звуков, сделан ряд соображений о фонемах и четко изложены акустические взгляды.

**Ключевые слова:** фонема, акустика, звуки речи, громкость звука, сила звука, gets.

**Annotation:** In this article, a classification of sound is given, a number of considerations about phonemes are made and acoustic views are clearly stated.

**Keywords:** phoneme, acoustics, speech sounds, sound volume, sound power, gets, flour.

Fonema – til tovush qurilishining ma’noli birliklar – morfemalarni tanib olish va farqlash uchun xizmat qiladigan birligi; o‘z navbatida, morfemalarning eng kichik tarkibiy qismi sifatida so‘zlarni ham o‘zaro ajratadi va farqlaydi. U faqat so‘z va morfemalar tarkibidagina muayyan ma’no farqlash xususiyatiga ega bo‘ladi. Masalan: o‘zbek tilida k fonemasi yaqin til orqa, portlovchi, jarangsiz undosh tovush bo‘lib, chuqur til orqa, sirg‘aluvchi, jarangli, lab-lab portlovchi, jarangli, b fonemalaridan farqlanadi. Fonema qandaydir eng sodda element emas, chunki bir paytning o‘zida mavjud bo‘lgan belgilardan iborat.

Hozirgi termin ma’nosidagi „Fonema“ tushunchasi shuningdek, fonologiya nazariyasi birinchi marta 19-asrning 70-80-yillarida rus-polyak, til tilshunosi Boduen de Kurtene tomonidan ishlab chiqilgan. Fonema fonologiya va morfologiyaning o‘rganish obyektidir. Fonema tovushlarni farqlashga xizmat qiladi.

Qomusiy olim Abu Nasr Farobiy yaratgan asarlari ichida „Fanlar tasnifi“ kitobi tilshunoslik masalalariga bag‘ishlanganligi bilan ajralib turadi. Buyuk alloma tilshunoslikning fonetika, morfologiya, sintaksis, orfografiya, orfoepiya va stilistika kabi bo‘limlari haqida dastlabki tushunchalarni bergan. Farobiy fonetika haqida fikr yuritir ekan, nutq tovushlari, tovushlarning undosh va unli turlari, undosh tovushlarning paydo bo‘lish o‘rni, unli tovushlar va ularning xususiyatlari, so‘zga qo‘shimchalar qo‘shganda yuz beradigan tovush o‘zgarishlari, so‘zning fonetik me’yori haqida fikr yuritadi.

Inson nutqi zamon va makonda paydo bo‘ladigan kichik va katta birliklardan tashkil topgan. Yuqorida qayd etilgan til va nutqda uch asosiy qatlam – fonetika, leksika, grammatika farqlanib ular o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarga ko‘ra, til va nutqni tarkibiy qismlarga ajratadi. Fonologiya va fonetika jihatdan til va nutqni tarkibiy qismlarga ajratadi.

Fonologiya asosiy birligi – fonema asosiy tadqiqot obyekti – fonemalarning zidlanishlari bo‘lib, bu oppozitsiyalar bir butun holda tilning fonologik tizimini hosil qiladi. Muayyan o‘rinda bir fonemaning ikkinchisiga qarama-qarshi qo‘yilishini namoyon etuvchi so‘zlar kvazi omonimlar (soxta omonimlar) deyiladi. Odatda, tildagi fonemalar soni kvazi omonimlar yordamida aniqlanadi va bunda bir yo‘la bir fonema ikkinchisiga qarama-qarshi qo‘yish orqali

ularning farqlash elementlari tasnif etiladi. Masalan, tol, sol so‘zlaridagi ikki fonema – t va s portlovchi, sirg‘aluvchi farqlanish elementlariga ega. Ularning har ikkisi ham til oldi, jarangsiz, shovqinli undoshlardir va bu belgilari farqlanmoqchi elementlardir.

Tarixiy – fonetik va fonologik o‘zgarishlar turi murakkab jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Fonetik va fonologik o‘zgarishlar natijasida tildagi fonemalar soni kamayishi yoki ko‘payishi mumkin, bunda ikki hodisa ro‘y beradi:

1. Ikki fonemaning yaxlit bir fonema sifatida birlashishi konvergensiya deyiladi. O‘zbek tilida tarixda ma’lum bo‘lgan til oldi va til orqa, qisqa va cho‘ziq fonemalar keyinchalik birlashib, o‘rta cho‘ziqlikka ega bo‘lgan oltita unli fonemani hosil qiladi.

2. Bir fonemaning ikki mustaqil fonemaga ajralishi divergensiya deyiladi. Masalan, qadimgi turkiy tilda bitta a fonemasi keyinchalik, ikki fonemaga ajralgan: a va o.

Bunda nutq tovushlari tebranma harakat natijasida hosil bo‘ladigan tovush to‘lqinlari asosida o‘rganiladi. Akustik jihatdan tovush bir jismning boshqa jismga urilishi, siqilishi natijasida tebranishi va havo to‘lqinining yuzaga kelishi hamda uning quloqqa eshutilishidir. Akustik jihat nutq tovushlarining tabiiy tovushlar bilan o‘xshash tomonlari hisoblanadi. Eshutilishi, ya’ni, akustik tomoniga ko‘ra tovushning bir qancha belgilari farqlanadi:

1. Tovush kuchi.
2. Tovush balandligi.
3. Tovush tembri.
4. Tovush cho‘ziqligi.

Tovush kuchi yoki intensivligi tebranishning shiddatiga bog‘liq bo‘ladi. Tovush to‘lqinining balandlik va kenglik ko‘lami, ya’ni amplitudasi asosida tovush kuchi (intensivligi) belgilanadi. Tovush kuchi (intensivligi) detsibel bilan o‘lchanadi. Detsibel miqdori oshib borgan sari tovush kuchi ortib boradi. Tovush kuchi 130 detsibeldan oshib ketsa, quloqqa kuchli zarb bilan uriladi va og‘riq beradi. Nutqda tovushning kuchi urg‘u bilan bog‘liq bo‘ladi. Chunki urg‘uni yuzaga keltirishda o‘pkadan havo kuchli zarb bilan keladi. Shunga ko‘ra urg‘u tushgan tovush kuchli, urg‘u tushmagan tovush esa kuchsiz tovush hisoblanadi. Tovushning balandligi deb tovushning tebranish miqdoriga bog‘liq belgisiga aytiladi. Bir xil vaqt birligida un paychalarining tebranish miqdori qanchalik ko‘p bo‘lsa, tovush shunchalik baland bo‘ladi, aksincha, tebranish miqdori qanchalik oz bo‘lsa tovush shunchalik past bo‘ladi. Tovush balandligining o‘lchov birligi gerts (Gts) deb ataladi. Fizik akustikada eng baland tovushlar ultratovush, eng past tovushlar esa infratovush deb yuritiladi.

Fonetikaning akustik jihatlariga oid ma’lumotlarni o‘zbek tilshunoslaridan Hasanboy Jamolxonov, Hadicha Muhitdinova, Sapayev Qalandar, Muyassar Saparniyozova, Nasiba Sayidrahimovalar ishlarida ham uchratish mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: „Yangi asr avlod“, 2009.
2. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2013.
3. Abduazizov A.A. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 1999.
4. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 1996.
5. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. – Toshkent, 2000.
6. I.Yo‘ldashev O‘. Sharipova. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2007.
7. Ўзбек тили практикumi. 1-қисм [Фонетика. Лексикология. Фразеология. Морфемика. Сўз ясалиши]. –Т., 2005.
8. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Фан, 2002.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2008.
10. <https://uz.m.wikipedia.org>.